

JADID MA'RIFATPARVARLARINING ILMIY – PEDAGOGIK QARASHLARI ASOSIDA O'QUVCHI- YOSHLAR MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYASINING RIVOJI

Raximboyeva Yulduz Xushnudbek qizi

Osiyo Xalqaro Universiteti 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Maqolada jadid ma'rifatparvarlarining (Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat va boshqalar) ilmiy-pedagogik qarashlari asosida o'quvchi yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasini rivojlantirish masalalari tadqiq etiladi. Tarixiy-pedagogik tahlil, qiyosiy-taqqoslash, aksiologik yondashuv va modellash tirish metodlariga tayangan.

Kalit so'zlar: jadidchilik, ma'rifatparvarlik, ilmiy-pedagogik qarashlar, ma'naviy-axloqiy tarbiya, milliy qadriyatlar, o'quvchi yoshlar.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы развития духовно-нравственного воспитания молодежи на основе научно-педагогических взглядов джадидского Просвещения (Абдулла Авлони, Махмудходжа Бехбуди, Абдурауф Фитрат и др.). В качестве методов исследования используются историко-педагогический анализ, сравнительный анализ, аксиологический подход и моделирование.

Ключевые слова: джадидизм, Просвещение, научно-педагогические взгляды, духовно-нравственное воспитание, национальные ценности, молодежь.

Abstract: The article examines the issues of developing the spiritual and moral education of young students based on the scientific and pedagogical views of the Jadid Enlightenment (Abdulla Avloni, Mahmudkhodja Behbudi, Abdurauf Fitrat, etc.). It is based on the methods of historical and pedagogical analysis, comparative and comparative, axiological approach and modeling.

Keywords: Jadidism, Enlightenment, scientific and pedagogical views, spiritual and moral education, national values, young students.

Globallashuv, axborot oqimlarining jadallashuvi va ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi sharoitida o'quvchi yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasini mustahkamlash dolzarb ilmiy-pedagogik muammo sifatida maydonga chiqmoqda. Mazkur jarayonda milliy pedagogik merosga tayangan holda tarbiya mazmunini boyitish, yosh avlodda barqaror axloqiy qadriyatlarni shakllantirish alohida ahamiyat kasb etadi. XX asr boshlarida Turkistonda yuzaga kelgan jadidchilik harakati jamiyatni isloh qilishning bosh omili sifatida ta'lim-tarbiyani ilgari surdi. Jadid ma'rifatparvarlari ta'limni faqat bilim berish jarayoni emas, balki shaxsning ma'naviy-axloqiy kamolotini ta'minlovchi tizim sifatida talqin qildilar. Shu bois jadid pedagogik

qarashlarini zamonaviy ta'lim nuqtayi nazaridan ilmiy tahlil qilish va amaliyotga tatbiq etish muhim ahamiyatga ega. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentim Sh.M.Mirziyoyev 2020-yil 24- yanvardagi Parlamentga yo'llagan murojaatnomasida jadidlar merosini chuqur o'rganish haqida: "...Umuman, biz jadidchilik harakati, ma'rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o'rganishimiz kerak. Bu ma'naviy xazinani qancha ko'p o'rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko'p savollarga to'g'ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ'ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi"¹ – deya ta'kidlagan edi. Bu esa, bevosita va bilvosita biz tomondan o'rganilib, o'quv jarayoniga tatbiq etilajak zamonaviy ta'limiy muhit barqarorligini ta'minlovchi muhim dasturulamal bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Maqolaning maqsadi jadid ma'rifatparvarlarining ilmiy-pedagogik qarashlari asosida o'quvchi yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasini rivojlantirishning nazariy asoslari, mexanizmlari va amaliy imkoniyatlarini aniqlashdan iborat.

Adabiyotlar tahlili

Abdulla Avloniy jadid pedagogikasida axloqiy tarbiyani markaziy o'ringa qo'yib, ilm va axloq uyg'unligini ta'minlash zarurligini asoslab bergan. Uning fikricha, axloqsiz ilm jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilmaydi. Avloniy asarlarida vatanparvarlik, halollik, mehnatsevarlik va ijtimoiy mas'uliyat yetakchi tarbiyaviy g'oyalar sifatida talqin etiladi. Mahmudxo'ja Behbudiy pedagogik qarashlarida milliy ongni uyg'otish va fuqarolik mas'uliyatini shakllantirish masalalariga ustuvor ahamiyat beradi. U ta'limni jamiyatni yangilashning muhim ijtimoiy mexanizmi sifatida ko'radi. Abdurauf Fitrat shaxs erkinligi, mustaqil fikrlash va ma'naviy kamolotni pedagogik jarayonning asosiy natijasi deb hisoblaydi. Uning qarashlari zamonaviy shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi bilan uyg'unlik kasb etadi. Fitrat o'z asarlarida xalqni jaholatdan chiqarish uchun ma'rifatparvarlikni targ'ib qilgan. U "jaholat zulmatidan faqat bilim nuri olib chiqadi" degan qarashni ilgari surgan. Fitrat ta'limning asosiy vazifasi yosh avlodni nafaqat bilim bilan qurollantirish, balki ularga milliy g'urur va axloqiy poklikni singdirish ekanligini ta'kidlagan. Fitrat axloqiy tarbiyaning boshlang'ich nuqtasi sifatida oilani ko'rsatgan. Uning "Oila" risolasida jamiyatda axloqiy me'yorlarni saqlash va mustahkamlashda oilaning roli birinchi o'rinda ekani ta'kidlangan. Fitrat oilani "axloq va ma'rifat maktabi" deb atagan. Bugungi globallashuv jarayonida milliy ma'naviyatni saqlab qolish masalasi dolzarb hisoblanadi. Fitratning ma'rifiy va axloqiy qarashlari milliy tarbiya tizimining tamal toshi bo'lib xizmat qilishi mumkin. Uning ilmiy va amaliy merosi yoshlarni ma'naviy barkamol shaxs sifatida tarbiyalash uchun muhim nazariy asosdir Zamonaviy tadqiqotlarda jadidchilik ko'proq tarixiy-

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi
<https://www.gazeta.uz/uz/2020/01/24/president-speech/> murojat sanasi: 29.01.2024 y

madaniy hodisa sifatida o'rganilgan bo'lib, uning ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid konseptual imkoniyatlari yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Mazkur maqola ana shu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi: tarixiy-pedagogik tahlil; qiyosiy-taqqoslash metodi; aksiologik yondashuv; pedagogik modellashirish. Ushbu metodlar majmui tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligi va ishonchliligini ta'minladi.

Natijalar va muhokama

Tadqiqot natijalari jadid ma'rifatparvarlarining ilmiy-pedagogik qarashlari o'quvchi yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasini rivojlantirishda kuchli nazariy asos bo'la olishini ko'rsatdi. Jadidlar ta'lim jarayonida ilmiy bilim bilan bir qatorda axloqiy fazilatlarni shakllantirishni ustuvor vazifa deb bilganlar. Jadid pedagogik konsepsiyasida ma'naviy-axloqiy tarbiya quyidagi komponentlar orqali amalga oshiriladi: milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, tafakkur madaniyati, ijtimoiy faollik, shaxsiy mas'uliyat va vatanparvarlik.

Mazkur komponentlar asosida ishlab chiqilgan model zamonaviy ta'lim tizimida tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish imkonini beradi. Ilmiy yangilik va tadqiqot natijalari Tadqiqotning ilmiy yangiligi: jadid ma'rifatparvarlarining ilmiy-pedagogik qarashlari ma'naviy-axloqiy tarbiya konsepsiyasi nuqtayi nazaridan tizimli tahlil qilindi; jadid g'oyalari asosida o'quvchi yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasini rivojlantirishning nazariy modeli ishlab chiqildi; jadid pedagogik merosining zamonaviy kompetensiyaviy yondashuv bilan uyg'unligi ilmiy asoslab berildi. Tadqiqot natijalari jadid pedagogik qarashlaridan foydalanish o'quvchilarda ma'naviy yetuklik va axloqiy barqarorlikni shakllantirishga xizmat qilishini ko'rsatdi.

Xulosa

Jadid ma'rifatparvarlarining ilmiy-pedagogik qarashlari o'quvchi yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasini rivojlantirishda muhim metodologik asos hisoblanadi. Ularning ta'lim va tarbiya haqidagi g'oyalari zamonaviy ta'lim islohotlari sharoitida ham o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda va barkamol avlodni tarbiyalashda samarali manba bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi <https://www.gazeta.uz/uz/2020/01/24/president-speech/> murojat sanasi: 29.01.2024 y.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent –“O'zbekiston” -2016.
3. Abdulla Avloniy..Turkiy guliston yoxud axloq - Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019-y.

4. Abdurauf Fitrat. “Oila yoki oila boshqarish tartiblari”.- Toshkent:“Cho`lpon”,2013-y.
5. Jadidlar. Mahmudxo`ja Behbudiy. T.: “Yoshlar nashriyot uyi”. 2022y.
6. Samadova S.S. “The significance of the Jadids` scientific heritage in developing the spirituality of yourth in New Uzbekistan” // Intelektualitas: Jurnal Penelitian Lintas Keilmuan. Indonesia. .2025. p1-6.
7. Samadova S.S. “The issue of education and upbringing in the spiritual heritage of the Jadids of Turkestan”// Cognizance Journal of Multidisciplinary Studies. Volume 5. Issue 1.2025. p 408-415.
8. Samadova.S.S. Jadidlarning ma`rifiy qarashlari va ta`lim tizimiga qo`shgan hissasi.// Pedagogik mahorat.2-son. 2025y.fevral. 230-233-b.